

Date: 5th December-2024

INGLIZ TILIDAGI XULQ-ATVOR IFODALOVCHI FE'LLARINING
STRUKTUR-SEMANTIK TASNIFI.

Ergasheva Shahnoza Erkinovna
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslikda xulq-atvor fe'llari paradigmlarining tahlili natijalari tipologiya va leksikografiyaga oid ayrim fikr-mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, maqolada inson xulq-atvorini ifodalovchi fe'llarning tipologik tadqiqiga oid xorijiy va milliy tajribalar hususida ham fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Xulq-atvor fe'llari, paradigma, tipologiya, leksikografiya, fe'lning postpozitivlari, to'liq ma'noli prefikslar, atama, fraza fe'llar.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПОВЕДЕНЧЕСКИХ
ГЛАГОЛОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.

Эргашева Шахноза Эркиновна
Преподаватель Ферганского государственного университета

Абстрактный. В данной статье представлены результаты анализа парадигм поведенческих глаголов в лингвистике и некоторые комментарии по типологии и лексикографии. Также в статье приводятся мнения о зарубежном и отечественном опыте, связанном с типологическим изучением глаголов, выражающих поведение человека.

Ключевые слова. Глаголы поведения, парадигма, типология, лексикография, послепозитивы глаголов, полнзначные приставки, термины, фразовые глаголы.

STRUCTURAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF BEHAVIORAL VERBS IN
ENGLISH.

Ergasheva Shahnoza Erkinovna
Teacher of Fergana State University

Abstract. In this article, the results of the analysis of paradigms of behavioral verbs in linguistics and some comments on typology and lexicography are presented. Also, the article contains opinions on foreign and national experiences related to the typological study of verbs expressing human behavior.

Keywords. Verbs of behavior, paradigm, typology, lexicography, postpositives of verbs, full-meaning prefixes, terms, phrasal verbs.

Krish. Dunyo tilshunosligida xulq-atvor fe'llari paradigmlarining tahlili natijalari tipologiya va leksikografiya, shuningdek, til aloqalarini rivojlantirishda tarjimashunoslik



Date: 5th December-2024

hamda madaniyatlararo muloqot uchun qo‘shimcha material manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ushbu yo‘nalishlarda xulq-atvor fe‘llari tadqiq etilayotgan bo‘lsa-da, turli madaniyat vakillarining xulq-atvor madaniy belgilari, me‘yorlari va qoidalari o‘ziga xosligi jihatdan, ularni tahlil qilishda leksik-semantik guruhlarini shakllantirish tamoyillarini ishlab chiqish va xulq-atvor ifodalarini yangicha yondashuvlar asosida ochib berish zaruriyatini taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ingliz tilshunosligiga fe‘lning grammatik jihatlarini va uni tasniflash masalasi M.Aronoff, J.L.Bybee, W.Pagliuca, R.D.Perkins, A.M.Clark, R.A.Close, Sh.Fries, P.Hill, R.Huddleston, J.K.Pullum, O.Jespersen, M.Joos, S.Kemmer, M.Newings, F.R.Palmer, D.Osten, H.A.Poustma, John E.Warriner, M.Swan, K.Walter, M.Haspelmath, Richard Nordquist, Kenneth Beare¹ va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Olimlar tadqiqotlari turli nazariy fikr-mulohazalarni o‘z ichiga olgan bolsa-da, ammo fe‘lni to‘liq o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar hanzuz yetarli emas.

Tahlil va natijalar. Ingliz tili xulq-atvor fe‘llarining deyarli to‘rttdan bir qismi (26,2%) “frazalar fe‘llari” deb ataladi, olimlar orasida yasama fe‘llar uchun umumiy qabul qilingan yagona atama mavjud emas, bular fe‘lning postpozitivlar bilan birikmasi bo‘lib, ular o‘zlarining kelib chiqishi bo‘yicha oldingi to‘liq ma‘noli prefiksalar bo‘lib, ingliz tili rivojlanishining ma‘lum bir tarixiy davrida fe‘ldan ajralib, ma‘nosi va vazifasini o‘zgartirmasdan postpozitsiyaga o‘tgan², masalan: 1. *More often – to play games, sit on social networks, chat, show off wit and try to fabricate their significance.* [Nikolay Lakutin. Oh, I love... A series of short stories, [SelfPub](#), 2021]. 2. *There’s something achingly satisfying about just playing house this way. I ... I chicken out and go for.* [Elizabeth Bear. Scardown: Book Two, Orion Press, 2015, 320p]. 3. *To get around such a turn at the fastest possible speed ...* [F.Todd Baker. From Newton to Einstein: Ask the Physicist about Mechanics and Relativity, [Morgan & Claypool Publishers](#), 2014, 94p].

Misollarda keltirilgan *show off* “maqtanmoq, ko‘z-ko‘z qilmoq”, *chicken out* “qo‘rqoqlik qilmoq”, *get around* “atrofida aylanmoq, qochmoq” fe‘llariga e‘tibor bersak, bunday kombinatsiyalarning til holati va mansublik darajasi hali oxirigacha aniqlanmagan. Tadqiqotda frazali fe‘llar xulq-atvor fe‘llarining bir qismi sifatida ko‘rib chiqiladi, ushbu fe‘llar lug‘atlarda quyidagicha tavsiflanadi: “verb – a word or a group of words that is used to describe an action, experience or state, for example, ‘come’, ‘see’, ‘be’, ‘put on’³ (lit. “fe‘l ish-harakat yoki holatni ifodalash uchun ishlatiladigan so‘z yoki so‘zlar guruhi, masalan: “kelmoq”, “ko‘rmoq”, “bo‘lmoq”, “kiymoq”), ikkinchidan, eng muhimi, bunday birikmalar xulq-atvor fe‘llariga bag‘ishlangan asarlarda o‘rganish obyektiga hali aylanib ulgurmagan.

Mazkur fe‘llar olimlar tomonidan turlicha talqin etilgani kuzatiladi: “verb-adverb combination”, “particle verb”, “verb-particle combination”, “verb-particle construction”,

²Морозов, А.В. Обратный лексикографический перевод как метод исследования деривационного потенциала русского слова в межъязыковом пространстве // Вестник ВГУ, Серия “Лингвистика и межкультурная коммуникация”, 2004. – № 1. – с. 71-74

³ Longman Dictionary of Contemporary English, 2001, P.1590



Date: 5thDecember-2024

“discontinuous verb”, “merged verb”, “separable verb”, “two-word verb”, “separable compound”, “poly-word verb” va boshqalar.⁴ Ular orasida eng keng tarqalgani “particle verb” (“ko‘makchi fe‘l”) atamasi bo‘lib, tilshunoslar o‘z asarlarida ko‘p foydalangan.⁵

Ilmiy manbalarda fe‘l-qismlari birikmalarining quyidagi uchta guruhini ajratiladi: qo‘shma (compositional), aspektual (aspectual) va idiomatik (idiomatic).⁶ Tadqiqotda bu turdagi fe‘llarning umumiy xarakteristikasi o‘rganildi.

Misol: 1. ... *there was nothing known as lazing around because if we lazed around, we would go hungry, you bloody fool,*” *Debasis shouted louder.* [[Ashim Basnet](#). The Eyes, 2021, P20].

Keltirilgan misoldagi *laze around* “bekor yurmoq, kayf-safo surmoq” qo‘shma fe‘lning ma‘nosini uning tarkibiy qismlari ma‘nosidan aniqlash mumkin, ikkinchi komponent esa o‘zining makon ma‘nosini (directional meaning) saqlab qoldi.

Masalan, 1. *I could hear her in her room, sobbing as if her heart ... swallowed up by the sadness in the room.* [[Charis Cotter](#). The Swallow: A Ghost Story, 2014, P.44]. 2. *For example, if all the ferment is used up by the first dose, the second dose produces no temperature variation.* [[Royal Society of Medicine \(Great Britain\)](#). Proceedings of Royal Society of Medicine, 2013, P.100].

Yuqoridagi misollarda berilgan *swallow up, use up* “batamom sarf qilmoq, sarflab bitirmoq” aspektual fe‘llarning ma‘nosi fe‘l va ikkinchi komponentning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nosidan iborat bo‘lib, u fe‘lga aspektiv ma‘no beryapti.

Ideomatik fe‘llar deb, ma‘nosini ularni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarining ma‘nosidan chiqarib bo‘lmaydigan frazali fe‘llarga aytiladi, ularning elementlari qisman yoki to‘liq qayta ko‘rib chiqiladi, masalan, 1. *They perform displays, which means that they not only show off significant objects but also speak and make gestures.* [[Philip L. Wagner](#). Showing Off: The Geltung Hypothesis, 2010, P.7]. 2. *During the process of learning to drive, we learn all the actions we need to take in order to be able to drive such as checking memories, changing gears, etc.* [[Alliyah Dawud](#). Take Your Warrior Pose: Your Guide to Releasing Your Inner Self Empowerment, [Balboa Press UK](#), 2023, P.44]

Xulosa. Shunday qilib, ingliz va o‘zbek tillarida xulq-atvor fe‘llarini tasniflashda bir necha yondashuvlar samarali ekanligi aniqlandi. Bunda denotativ: fe‘llarning semantik sinflari va tematik guruhlarni ajratish asosida ishlashi, paradigmatic: fe‘l ma‘nolaridagi umumiy va differentsial qismlarni ajratishda, sintagmatic: fe‘l valentliklarining miqdori va sifatini tahlil qilishda, assotsiativ: fe‘llarni psixolingvistik jihatdan tasniflashda ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Shuningdek, har bir tasnif shaxsning xulq-atvori va harakatlarining turli xil xususiyatlarini aks ettiruvchi semantik xususiyatlar majmuasi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kichik tasniflarga bo‘linadi: "Ikkilangan, ehtiyotkor xulq-atvor. Sustkashlik. Harakatsizlik. Faoliyatdan qochish" guruhi uchta kichik guruhni o‘z ichiga oladi:

⁴ Thim, S. Phrasal Verbs: The English Verb-Particle Construction and Its History / S. Thim. – De Gruyter Mouton, 2012. – 302 p.

⁵ Dehe, N. Particle Verbs in English: Syntax, information structure and intonation / N. Dehe. – Linguistik Aktuell / Linguistics Today, v. 59, 2002 – 302 p.

⁶ O‘sha manba



Date: 5thDecember-2024

"Uyatchanlik, qat'iyatsizlik, ehtiyotkor xulq-atvor", "Harakatlardagi sustkashlik", "Bekorchilik, bekor yurish, faoliyatdan qochish". Yuqorida aytib o'tilgan birinchi kichik to'plam yana uchta qismga bo'linadi: "Qo'rqqoq, uyatchan xulq-atvor, cheklanganlik", "Ikkilanish, ehtiyotkorlik, qo'rqqoqlik", "Irodasizlik, itoatkorlik, lanjlik", ular ham o'z navbatida kichikroq semantik guruhlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tasnifda inson xulq-atvorining barcha tomonlari qamrab olinib, ularning o'zaro ta'sirini ko'rish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Морозов, А.В. Обратный лексикографический перевод как метод исследования деривационного потенциала русского слова в межъязыковом пространстве // Вестник ВГУ, Серия "Лингвистика и межкультурная коммуникация", 2004. – № 1. – с. 71-74
2. Longman Dictionary of Contemporary English, 2001, P.1590
3. Thim, S. Phrasal Verbs: The English Verb-Particle Construction and Its History / S. Thim. – De Gruyter Mouton, 2012. – 302 p.
4. Dehe, N. Particle Verbs in English: Syntax, information structure and intonation / N. Dehe. – Linguistik Aktuell / Linguistics Today, v. 59, 2002 – 302 p.
5. O'sha manba

